

TILDAGI MA'NO HAMDA MAZMUN MUNDARIJASINING PRAGMATIK TADQIQI

Rahimov Usmonjon Ergashevich,

*Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

E-mail: [usmonjonrahimov1961@gmail.com/](mailto:usmonjonrahimov1961@gmail.com)

Annotatsiya. Maqolada tilning barcha sathlarida tadqiqot ob'ekti bo'lgan hamda murakkab birlik hisoblangan til birligi bo'lgan so'zning ma'no tuzilishi, mazmun mundarijasi o'zaro munosabatdorlikda pragmatik jihatdan presuppozitsiya ifodalab, har qanday matnni mazmuniy murakkablashtirishi tahlil etilgan. So'z murakkab birlik sifatida nutqiy aktlarning nutqiy vaziyatga mos holda nutqiy strategiya talabi bilan lokutiv, illokutiv, perlokutiv aktlarning yuzaga chiqishiga vosita bo'lishi hamda matnlarda botiniy ma'no va mazmun ifodalashi yoritilgan. Shuningdek, so'zning obraz, ramz, timsol ifodalab kelishi pragmatik jihatdan bo'lishi tasavvuf yo'nalishidagi matnlar misolida ochib berilgan. So'zda nafaqat ma'no, balki mazmun tuzilishi ham bo'lishi misollar orqali ochib berilgan. So'z pragmalingsvistikaning ob'ekti sifatida matnning mazmuniy murakkablashtirishi ocib berilgan.

Kalit so'zlar: Ma'noshunoslik, pragmatika, pragmalingsvistika, obraz, ramz, timsol, psiholingsvistika, mental leksikon, nutqiy aktlar, diskurs, pragmatik vaziyat, presuppozitsiya.

Аннотация. В статье анализируется прагматическое выражение presupposition в взаимосвязи между смысловой структурой слова как языковой единицы, являющейся объектом исследования на всех уровнях языка и представляющей собой сложную единицу, и его содержательной структурой, а также их роль в усложнении содержания любого текста. Освещается, что слово как сложная единица, в соответствии с требованиями речевой стратегии и речевой ситуацией, служит средством реализации locutionary, illocutionary and perlocutionary acts and expresses implicit meaning and content in texts. Furthermore, the pragmatic manifestation of the word as an image, symbol, and artistic representation is revealed through examples drawn from Sufi-oriented texts. Through examples, it is demonstrated that a word possesses not only meaning but also a content structure. The article also reveals the role of the word, as an object of pragmalingsvistics, in complicating the semantic structure of a text.

Ключевые слова: семасиология, прагматика, прагмалингвистика, образ, символ, художественный знак, психолингвистика, ментальный лексикон, речевые акты, дискурс, прагматическая ситуация, presupposition.

Abstract. The article analyzes the pragmatic expression of presupposition in the interrelationship between the semantic structure of the word, which constitutes a linguistic unit serving as an object of research at all levels of language and representing a complex unit, and its content structure, as well as their role in complicating the semantic structure of any text. It is elucidated that the word, as a complex unit, in accordance with the requirements of speech strategy and speech situation, serves as a means for the realization of locutionary, illocutionary, and perlocutionary acts, and expresses implicit meaning and content in texts. Furthermore, the pragmatic manifestation of the word as an image, symbol, and artistic representation is revealed through examples drawn from Sufi-oriented texts. Through examples, it is demonstrated that a word possesses not only meaning but also a content structure. The article also reveals the role of the word, as an object of pragmalingsvistics, in complicating the semantic structure of a text.

Keywords: semasiology, pragmatics, pragmalingsvistics, image, symbol, artistic representation, psycholingsvistics, mental lexicon, speech acts, discourse, pragmatic situation, presupposition.

Kirish va mavzuning dolzarbligi. So'z - tilshunoslikning eng markaziy va shu bilan birga eng murakkab birligi hisoblanadi. SHu sababli, "so'z" hodisasini o'rganish bo'yicha

tadqiqotlar juda ko'p tarmoqli bo'lib, ular tilning turli sathlarida olib borildi. Ular quyidagilar:

1. Semantik tadqiqotlar (Ma'noshunoslik) [1.Rahmatillayev, 2010, 184-bet]. Bu yo'nalishda so'zning ma'no tuzilishi, ko'chma ma'nolari va tushuncha bilan bog'liqligi o'rganiladi. Komponent tahlil(so'z ma'nosini eng kichik bo'laklarga (semalarga) ajratib o'rganish), semantik maydon nazariyasi (so'zlarni ma'nodoshlik va turdoshlik asosida guruhlarga bo'lish (masalan, "ranglar", "qarindoshlik nomlari"), kognitiv semantika (so'zning inson ongida qanday shakllanishi va dunyo manzarasini qanday aks ettirishini tadqiq qilish) kabi tahlil turlari mavjud.

2. Struktur va morfologik tadqiqotlar [2.Нурмонов А. 2006, 34-35-бетлар]. So'zning ichki qurilishi va yasashiga e'tibor qaratiladi. So'z yasashi nazariyasi (tilda yangi so'zlarning paydo bo'lish qo'llari va usullari), morfemika (so'zning tarkibiy qismlari (o'zak va qo'shimcha) va ularning o'zaro ta'sirini o'rganish) kabi tahlil yo'nalishlari .

3. Leksikografik tadqiqotlar (Lug'atshunoslik) [3.Собиров А. 2004, 136-бет]. So'zlarni tizimlashtirish va lug'atlarga jamlash bilan bog'liq tadqiqotlar. Bu yerda so'zning nafaqat ma'nosi, balki uning talaffuzi, etimologiyasi (kelib chiqishi) va qo'llanish doirasi tasniflanadi, chastotasi, struktur turlari kabi bo'limlar tarzida o'rganiladi.

4. Psixolingvistik tadqiqotlar [4.Usmonova SH., Shamsiyeva SH. 2022, 186-bet]. So'zning inson ruhiyati va nutq faoliyatidagi o'rnini o'rganadi. Unda so'zning assotsiativ tadqiqi (inson bir so'zni eshitganda, ongida paydo bo'ladigan boshqa tushunchalar zanjirini o'rganish), mental leksikon tadqiqi(inson xotirasida so'zlar qanday saqlanishi va kerakli paytda qanday "qidirib topilishi") haqidagi tahlillar amalga oshiriladi.

5. Pragmatik va diskursiv tadqiqotlar [16. Сафаров Ш. 2008, 200-бет]. So'zning nutqiy vaziyatdagi ta'siri va maqsadini o'rganadi (biz avvalgi fasllarda ta'kidlagan portret pragmatikasi ham shu sohaga kiradi). Unda nutqiy aktlar nazariyasi (so'z yordamida biror ishni bajarish (masalan, va'da berish, buyruq berish yoki ogohlantirish), konnotatsiya (so'zning lug'aviy ma'nosidan tashqari tashuvchi hissiy-ekspressiv bo'yog'i (ijobiy yoki salbiy munosabat) kabi jihatlari tahlil qilinadi.

6. Zamonaviy tadqiqotlar: Korpus lingvistikasi [5.Эшмўминов А. 2019, 45-бет]. Bugungi kunda so'zlarni o'rganishda kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Korpus lingvistikasi millionlab matnlar bazasida so'zlarning qay darajada tez-tez ishlatilishini (chastotasini) va qaysi so'zlar bilan ko'p birikishini matematik aniqlikda hisoblab chiqadi. Matnlarning qiyosiy chastotali tadqiqi amalga oshiriladi.

So'z kommunikativ muloqotda asosiy axborot yetkazuvchi lingvistik vosita sifatida bosh rejada turadi. Qolgan ekstralingvistik(paralingvistik, prosodik, pragmatik vaziyat) vositalar so'zni kuztib boruvchi qo'shimcha vositalar sifatida, kommunikativ muloqotning samaradorligini ta'milovchi asos tariqasida ishtirok etadi. So'zni semantik strukturasi bir qancha elementlar butunlik tarzida, umumlashgan holda mavjud. So'zning

kommunikativ – pragmatik imkoniyatlari umumiy bilish xazinamizda turadi. Soʻz paradigmada - leksik, morfemik, morfologik, sintaktik paradigmada gomogen boʻlsa, pragmatik jihatdan getrogenlik [6. Rahimov U. 2026, 67-bet] kasb etadi. Ularning xususiyliklari nutqiy jarayonda ayro holda yuzaga chiqadi [7. Набиева Д. 2005, 67-бет].

Metodlar va oʻrganilish darajasi. Soʻz inson ongida olamning lisoniy manzarasini koʻrsatuvchi omil hisoblanadi (olamning lisoniy manzarasidan tashqari badiiy, biologik, fizik, ximik, geografik, matematik, falsafiy manzaralari ham bor) va u ongimizda obrazlar, geshtalʼtlar, freymlar, propozitsiyalar, diagrammalar tarzida yashaydi. SHuning uchun soʻzning nutqiy jarayondagi faoliyatini pragmatik paradigma (getrogen paradigma) asosida tadqiq etish maʼqul. Pragmatik paradigmada soʻzlarning nutqiy jarayondagi pragmatik maʼnolari tadqiq etiladi.

Soʻzning maʼnolar jilosi nutqda namoyon boʻladi. Chunki soʻz imkoniyat sifatida tilda mavjud boʻlsa, faoliyat sifatida nutqda ishtirok etadi [2. Нурмонов А. 1992, 53-бет]. Nutqdagi soʻzning ishtiroki cheksiz va chegarasizdir. Soʻzning faoliyatini A.Navoiy quyidagicha izohlaydi: “Koʻnguldin dogʻi soʻz durri nutq sharafiga sohibi ixtisos vasilasi bilan guzorish va oroish koʻrguzar va aning qiymati ham martabasi nisbatiga boqa intishor va intihor topar. Gavhar qiymatiga nechukki, marotib asru koʻpdur, hattoki, bir diramdin yuz tumangacha desa boʻlur” [2. Нурмонов А. 1992, 105-бет]. (Mazmuni: Koʻngildan yana soʻz duri nutq martabasiga mutaxassis vositasida naql qilish orqali tartiblanadi va uning qiymati ham martabasining nisbatiga qarab tarqaladi hamda shuhrat topadi. Gavhar qiymatiga nisbatan juda koʻpdir, hattoki, bir diramdan yuz tumangacha desa boʻladi). Koʻngil til xazinasida boʻlsa, nutq til xazinasidagi boylikni sarf qiluvchi bozordir. Bozorga yaxshi narsalarni tartib qilish savdogarning mahoratiga bogʻliq. SHuning uchun nutqiy barkamollik soʻzlardan oʻrinli foydalanish asosida yuzaga keladi. Bundan shu narsa anglashiladiki, nutq imkoniyat sifatidagi til asosida biror shaxsning maqsadini (keng maʼnoda pragmatikada) roʻyobga chiqarish mahsulidir [8. Неъматов Х., Бозаров О. 1993, 5-бет]. Bu holat soʻz maʼno jilolarining “nutq martabasida oroyish” topishini tahlil qilganda, yana ham tushunarliroq boʻladi. Bu holat tasavvufda uta murakkab.

Tadqiqot natijalari. Keyingi davrlarda tasavvufni oʻrganish nihoyatda kuchaydi. Natijada tasavvuf ilmiy jihatdan qayta jonlandi. Uning turli xususiyatlarini yorituvchi asarlar maydonga keladi [9. Иброҳим Ҳаққул. 1989, 13-бет]. Bu asarlarda tasavvuf yoʻli va uning mohiyati haqida ajoyib fikrlar bayon qilingan.

Tasavvuf tadqiqotiga bagʻishlangan ilmiy va badiiy asarlarda bu tariqatning asosiy yoʻli, bu yoʻldagi yoʻlovchilar, bu yoʻlning mohiyati haqida xilma-xil qarashlar, fikrlar mavjud. Ammo lisoniy, pragmatik tahlil qilinmagan. Biz ushbu boʻshlikni toʻldirish maqsadida tasavvuf olamiga sayohat qilamiz va tasavvufda maʼnolar nimalar asosida yuzaga kelishini asoslashga harakat qilamiz.

Tasavvuf tariqatining vakillari oʻz maqsadlari va niyatlarini ishoraviy maʼnolar orqali yuzaga chiqarganlar. Shuning uchun yaqin-yaqin kunlarga qadar tasavvufdagi ishoraviy

ma'nolarni tushunmay, noto'g'ri tadqiq qilib keldilar. Ana shu sababdan tasavvufdagi ishoraviy ma'nolar-pragmatik ma'nolarni lisoniy va pragmatik tahlil qilish juda zarur.

Tasavvufdagi tagma'nolar turli asoslarga ko'ra tushuniladi. Unda ramz-timsol nihoyatda kuchli bo'lib, obrazli ifodalar tuzishda keng qo'llaniladi. Ramziy ma'nolarni to'g'ri anglash tasavvufni xolisona baholash imkonini yaratadi. Chunki tasavvuf xolislik ta'limi. Tasavvuf – soflik. U “qullikka belni mahkam etishga chorlasa-da, Haq qullarining naqadar aqliy, ma'naviy, ahloqiy imtiyozlarga ega ekanligini amalda isbotlaydi [10. Иброҳим Ҳаққул. 1991, 5-бет]. Shuning uchun bu tariqat vakillari yaratgan yodgorliklari, asarlarning mazmuni pragmatik ramziy asoslarga qurilgan bo'lib, uni to'g'ri anglash uchun o'ta zukko aql egasi bo'lishi zarur.

Tasavvufda har bir so'zning ishoraviy ma'nosi bor. Tuzilgan matnda so'zlar ishoraviy ma'nolari bilan ahamiyat kasb etadi. Agar uni to'g'ri – o'z ma'nosida tadqiq etilsa, biz kutgan ma'no chiqmaydi. Masalan:

*Zolim agar jafo qilsa Ollo degil
Ilking ochib, zore qilib, bo'yin surgil,
Haq dodinga yetmas bo'lsa gila qilgil,
Haqdin eshitib bu so'zlarni aydim mano.*

(Ahmad Yassaviy)

Bu to'rtlikning birinchi satrida “Zolim agar jafo qilsa, Ollo degil” jumlasida bor. Undagi zolim so'zi zulm qiluvchi, zulmkor ma'nosini bildiradi. Biz to'g'ridan to'g'ri “Zolim zulm qilsa, indama, Ollo deb, bo'yinsun” tarzida tahlil qiladigan bo'lsak, xato bo'ladi. Turg'unlik yillarida shunday tahlil qilingan ham.

“Zolim” so'zini ishoraviy ma'nosi ham bor. U “ma'noni tasavvufiy ma'no” desa ham bo'ladi. Tasavvufda “Zolim” so'zi “nafs”ga nisbatan qo'llangan. Nafs kishilarni turli ko'uyga soluvchi zolim sifatida ta'riflangan. Ahmad Yassaviy bu hikmatida “nafs”ning qilmishlaridan qutulish yo'lini ko'rsatib beradi. Ya'ni, “Nafsing seni turli yo'llarga yetaklasa, Haqqa bo'yin sungin. Haq dodinga yetmasa, gina qilgin. Men Haqdan eshitib, bu hikmatlarni aytdim”.

*Riyozatni qattiq tortib qonlar yutub,
Man daftari soniy so'zni ochdim mano.*

(Ahmad Yassaviy)

“Riyozat” – arabcha so'z bo'lib, qiyinchilik, mashaqqat, zahmat hamda dunyoviy ishlardan o'zini, nafsini tiyib, qiynalish, o'zini qiynash ma'nolarini ifodalaydi [12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-том. 1980 йил, 624-бет].

Ikkinchi bir lug'atda riyozat so'zi arabcha ekanligi ko'rsatilib, nafs xohish qilgan narsalardan tortilib, o'zini qiynash, qiynalish, mashaqqatlanish [13. Навоий асарлари луғати. 1972 йил, 526 бет.] kabi ma'nolarni ifodalashi aytiladi.

Tasavvufda “riyozat” so'zi nafs xohish qilgan narsalardan o'zini tiyib, Haq yo'lida qiynalishdan huzurlanish ma'nosini ifodalaydi. Chunki Haq yo'lga kirganlar bu yo'ldagi

azobdan rohatlanganlar. Shuning uchun baytdagi riyozat soʻzini tasavvufona maʼnosida tushunish kerak. Tasavvf pragmatikasi riyozat – oddiy mashaqqat, qiynalish emas. Unda tan mashaqqat chekib, ruh semiradi.

Baytda “daftari soniy” birikmasi ham yuqoridagi tasavvufona tagmaʼnoga ega. Tasavvufda “daftar” soʻzi oddiy daftarni emas, ilohiy ishq mazmunini ifodalaydi. “Soniy” soʻzi arabcha boʻlib, ikkinchi tartib sonini, daftarni ifodalaydi [13. Навоий асарлари луғати. Тошкент, 1972 йил, 526 бет.]. Bu birikma “ikkinchi daftar” maʼnosini bildiradi. Lekin uning pragmatikasida “Ahmad Yassaviyning ikkinchi daftari” degan maʼno yotmaydi. Unda ilohiy “Daftari aʼmal” – “Amallar daftari”dan keyingi ikkinchi ilohiy “daftar” maʼnosiga ishora bor [14. Аҳмад Яссавий. 1991 йил, 255-бет]. Yaʼni, Ahmad Yassaviy hikmatlari “Amallar daftari”dan keyingi ikkinchi “ilohiy daftar”dir. SHu sababdan bayt ikki xil tahlil qilinishi mumkin: 1. Qiynalib, riyozat tortib, qonlar yutib, men ikkinchi daftar soʻzini ochdim. 2. Nafs xohishlaridan oʻzimni tiyib, qiyinchiliklar ortida qonlar yutib va bu qiyinchiliklardan huzurlanib, ikkinchi daftar, soʻzini ochdim. Bu ikkinchi daftar ilohiy “Amallar daftari”da bitilgan hikmatlar ishoraviy maʼnolari – presuppozitsiyalari asosida tahlil qilinmasa, toʻgʻri bahosini topmaydi. SHuning uchun tasavvufda ishlatiladigan soʻzlarning pragmatik ishora maʼnolari pragmatolingvistik tahlili nihoyatda zarur. CHunki tasavvuf toʻgʻri tadqiq etilmasa, juda katta maʼnaviy boylik parda ostida qoladi. Masalan:

*Furqatingda ey pari tan kuydiyu jon yigʻladi,
Dam-badam xud qaygʻudin ikki koʻzim qon yigʻladi.
Hech davo yoʻq dardkim tanamda bor oni koʻrib,
Toʻnni chok etdi tabibu dori-darmon yigʻladi.*

(Sakkokiy)

Bu gʻazal tahlilida ham ikki xil yoʻlni, usulni koʻrish mumkin. Birinchisi oʻz maʼnosida, ikkinchisi tasavvufiy maʼnoda.

Birinci – oʻz maʼnosida quyidagicha tahlil qilish mumkin: “Ayriligʻingdin ey pari tanim kuyib, jonim yigʻladi. Uzun tortgan qaygʻu alamlardan ikki koʻzimdan qon oqdi. Tanamdagi davosi yoʻq bu dardni koʻrib, tabib toʻnini yirtdi, dori-darmonlar ham yigʻladi”.

Ikkinchi – ishoraviy maʼnoda quyidagicha fikrlarni aytish mumkin. Unda soʻzlarning ishoraviy maʼnolarini aniqlab olish zarur boʻladi. Pari – yor, maʼshuqa – Xudoning tajallesi. Dard – oshigʻlik – Xudoga oshigʻlik dardi. Tabib – aql – Xudoga yetinish yoʻliga yetaklovchi aql. Dori-darmon – soʻzlar – xudoga yetishish yoʻliga chorlovchi vosita. Ishoraviy maʼnoda “Ey Olloh, sendin ayriliqda tanim vujudim kuyib, jonim yigʻlaydi. Bu dardning davosi yoʻq. Buni koʻrib aqlim, soʻzlarim ham yigʻlamoqda”. Koʻrinib turibdiki, mazmun umuman oʻzgardi. Mazmunning oʻzgarishiga soʻzlarning presuppozitsiyalari taʼsir etgan. SHuning uchun tasavvuf unsurlarini aniq belgilab, toʻgʻri xulosa qilish kerak. Aks holda baytning mazmuni siyqalashadi.

“Tabib” soʻzini “aql” deb tahlil etish daho ijodkor Jaloliddin Rumiya uchraydi. U oʻzining bir ruboiysida tabib soʻzini aqlga tenglashtiradi:

*Jonimki, harif erdi, begona emish,
Aqlimki, tabib erdi, devona emish.
Vayronaga shohlar berishar ganj, ajab,
Vayrona dilim ganj, ila vay, ona emish.*

(Jaloliddin Rumiya)

Xullas, biz daho sanʼatkorlarning benazir maʼnaviy xazinasini hali yetarlicha tahlil etib, oʻz bahosini bera olganimiz yoʻq. Hozirgacha yaratilgan asarlarda lisoniy asoslanish yetarlicha oʻz aksini topmagan. SHuning uchun tasavvuf tariqati namoyondalarining asarlarini pragmatik sharh usulida tahlil etish tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biridir. Bu muammo soʻzning pragmatik tahlili asosida yechiladi. Chunki soʻz tasavvufda ilohiy qudratga ega boʻlgan neʼmat hisoblanadi. Shuning uchun soʻzning ilohiy maʼnolarini tahlil qilib, lisonshunoslikka kiritish davr talabidir.

Haqiqatdan, bizning soʻz haqida, uning maʼnosi haqida bilganlarimiz juda oz. Hali soʻzning ochilmagan qirralari koʻp. Uni ochish, aniqlash yoʻlida juda koʻp zahmatlar chekish kerak. Mirzo Bedil bu holat haqida bunday deydi:

*Gardun oʻzi - necha sobitu sayyor emish,
Daryo oʻzi – necha chashmayu anhor emish.
Dunyo ishidan hamisha voqif boʻlkim,
Sen bilganing ul bitta emas: bisyor emish.*

Tasavvufda soch, yuz, oy, quyosh, it, ot kabi soʻzlar oʻz lugʼaviy maʼnolarida qoʻllanmaydi. Ularning tasavvufiy maʼnolari bor [15. Иванов С. “Жаҳон адабиёти журнали”, 2015 йил, 8-сон.]. Ularni pragmatik, kontseptologik, pragmapoetik tahlil qilish bugungi kun talabidir.

Obraz, timsol, ramz soʻzlari bir-biriga yaqin boʻlsa-da, adabiyotshunoslik va sanʼatda alohida maʼno va vazifalarga ega boʻlgan tushunchalardir. Ularni bir tizimning turli darajalari deb tasavvur qilish mumkin.

Obraz (Badiiy obraz) bu eng keng tushuncha boʻlib, sanʼat va adabiyotning asos toshidir. Obraz – bu borliqning sanʼatkor xayolidan oʻtgan va qayta ishlangan inʼikosi. Obraz doimo hayotiylikka intiladi. Unda ham individual, ham umumiy xususiyatlar boʻladi. M., Anvar (“Mehrobdan chayon”), Hamlet, Otello. Ular jonli inson sifatida gavdalanadi. Ijodkor ularning harakatlari, soʻzlari, fikrlashi, dunyoqarashi orqali hayotni tasvirlaydi.

Timsol – bu obrazning nisbatan mukammallashgan, barqarorlashgan va maʼlum bir gʻoyani tashuvchi koʻrinishi. Koʻpincha “obraz” va “timsol” soʻzlari sinonimdek ishlatiladi, lekin timsol koʻproq namuna (ideal, tasavvur) maʼnosiga ega. Timsolda shaxsiy xususiyatlardan koʻra, umumlashtiruvchi sifatlar ustunlik qiladi. Uning mazmunida abstraktlashgan tasavvurlar galareyasi boʻladi. M., Ona timsoli deganda, biz maʼlum bir

ayolni emas, balki dunyodagi barcha onalarga xos bo'lgan mehr va fidoyilikni tushunamiz. Unda millat, irq, kambag'al, boy degan tushunchalar pragmatik parda ortida turadi.

Ramz (Simvol) bu eng yuqori va mavhum daraja. Ramz – biror narsa yoki hodisani o'z nomi bilan emas, balki boshqa bir belgi orqali yashirin ifodalash. Ramz ko'p ma'noli bo'ladi. Uning mag'zida katta falsafiy g'oya yotadi va u har doim ham mantiqiy tushuntirib berilmaydi (hissiyot bilan anglanadi). M., Humo (Oqqush) – poklik va vafo ramzi. SHam – oshiqning qalbi yoki haqiqat ramzi. Ilon – yovuzlik yoki donolik ramzi. Xulosa qilib aytganda, biz bir asarni o'qiyotganimizdagi qahramon – obraz, agar u biror ezgulikning idealiga aylansa – timsol, agar uning taqdiri yoki ismi butun boshli bir g'oyani (masalan, ozodlikni) bildirsa – ramz bo'lib qoladi.

Tasavvuf va pragmatika (tilshunoslik yo'nalishi sifatida) turli yo'llardan yursa-da, bitta maqsadda – “So'z ortidagi asl ma'noni topish” nuqtasida uchrashadi. Pragmatikada bitta gap vaziyatga qarab turli ma'nolarni beradi. M., “Darcha ochiq” degani shunchaki ma'lumot bo'lishi yoki “Uni yopib qo'y” degan ishora (presuppozitsiya) bo'lishi yoki “Bemalol kiraver” degan buyruq anglashilishi mumkin. Tasavvufda har bir so'z – ishora. M., “Gul” deganda, sufiy inson o'simlikni emas, ilohiy jamolni tushunadi. Ikkala soha ham so'zning lug'aviy ma'nosidan ko'ra, uning ishlatilish maqsadiga (illokutsiyasiga) e'tibor beradi.

Pragmatikada Graysning muloqot tamoyillari bor (masalan, “kerakli miqdorda gapirish”). Agar kimdir savolga juda qisqa yoki boshqacha javob bersa, demak, u gap tagida gap qoldirgan bo'lib, tinglovchiga havola qiladi. Tasavvufda “Lison ut-tayr” (Qushlar tili) ham aynan shunday. Hudhud va boshqa qushlar o'rtasidagi suhbat – bu mutlaqo pragmatik jarayon. Hudhud qushlarning javoblaridan ularning ruhiy holatini (tashhisini) aniqlaydi. Shunga qarab illokutiv akt tanlaydi.

Pragmatikada til hamma narsani ifodalashga qodir emas, ko'p ma'no tinglovchining fahmiga va vaziyatga tashlab ketiladi. Tasavvufda Alisher Navoiy aytgan “Hayrat” vodiysi – til o'z funksiyasini to'xtatgan joy hisoblanadi. Sufiylar “so'z tugagan joyda haqiqat boshlanadi” deyishadi. Bu pragmatikaning eng chegara nuqtasi – sukut orqali muloqot qilishdir. Ularning o'xshash joyi “Inson nimani nazarda tutyapti?” degan savolga javob izlash nuqtasida anglashiladi. Pragmatika bu vazifani til qoidalari orqali bajaradi. Tasavvuf esa buni ruhiy holatlar orqali anglatadi. Chunki tasavvuf – bu aslida “ilohiy pragmatika”dir. U yerda har bir ramz va timsol ma'lum bir maqsadli muloqot birligi hisoblanadi.

Bugungi kunda tez-tez takrorlanayotgan “Bitta tovush ham matn bo'la oladimi?” degan savolga tasavvufda – ha deb ayta olamiz, chunki unda olamning siri (mazmuni) pragmatik yashiringan. Pragmatikada ham – ha deymiz, agar u vaziyatga qarab ma'no ifodalasa, mazmun ko'lami kengaysa.

Pragmatikada biz kundalik hayotda metafora ishlatganimizda (masalan, “Vaqt – oltin”), mantiqan “yolg‘on” gapiramiz (chunki vaqt metall emas). Lekin pragmatika buni “yolg‘on” emas, balki ma‘noni kuchaytirish deb tushuntiradi.

Tasavvufda sufiylar dunyoni “majoz” (ko‘prik) deb atashadi. Ular ishlatadigan “May”, “Gul”, “Layli” obrazlari ham zohiran “yolg‘on” (chunki gap ichimlik yoki ayol haqida ketmayapti), lekin tasavvuf buni botinan eng yuksak Haqiqatga olib boruvchi vositadir deb tushuntiradi.

Pragmatikada so‘zlovchining nima degani emas, nima maqsadda aytgani muhim. Tasavvufda Navoiy “Lison ut-tayr”ni shunchaki qushlar haqida ertak aytish uchun yozmagan. Uning maqsadi(illokutsiyasi) – o‘quvchining qalbini o‘zgartirish. Bu yerda “ertak” – shakl, “hidoyat” – maqsad(illokutiv akti) hisoblanadi. Ikkala tizim ham yuzadagi ma‘noga aldanib qolmaslikka o‘rgatadi. Pragmatika bizni jamiyatda odamlarni to‘g‘ri tushunishga, gap tagidagi gapni anglashga o‘rgatsa, tasavvuf bizni Koinot va O‘zligimiz tagidagi “Ilohiy ma‘no”ni - mazmunni anglashga o‘rgatadi.

Tasavvufdagi timsollarni tushunmasdan turib, Navoiy, Rumiyy yoki Attor ijodini to‘liq anglab bo‘lmaydi.

May (vino). Bu mast qiluvchi ichimlik emas, balki “ilohiy ishq” va zavq timsoli hisoblanadi. Soqiy esa inson qalbiga shu ishqni quyuvchi, soluvchi Pir (ustoz) yoki Allohning o‘zidir. Mayxona esa bu yer – ibodatxona yoki orifning qalbi tarzida tushuniladi. U yerda dunyoviy tashvishlardan voz kechilib, faqat Yaratganning ishq bilan mast bo‘linadi.

Sham va Parvona. Parvona – Oshiq (solih), Sham – Ma‘shuq (Alloh). Parvonaning o‘zini shamga urib halok qilishi – “Fani filloh” (Allohda yo‘q bo‘lish), ya‘ni o‘z “men”idan voz kechib, ilohiy “nur”ga qovushishdir.

Gul va Bulbul. Bulbul – ilohiy go‘zallik sog‘inchida nola qilayotgan inson ruhi, Gul esa – Allohning jamoli.

Nay. Jaloliddin Rumiyy ijodida nay – o‘z vatanidan (qamishzordan) yulib olingan va asliga qaytishni istab ingrayotgan inson ruhining ramzidir.

Tasavvufda timsollar ishlatilishining ikkita asosiy sababi bor. Birinchisi ma‘noning o‘ta kengligi, ya‘ni ilohiy tushunchalar inson so‘zlariga sig‘maydi. Ramz esa so‘zdan ko‘ra ko‘proq narsani his qildiradi. Ikkinchisi sir saqlash hisoblanib, tasavvuf ahli “sir”ni noahlardan (ma‘noni tushunmaydigan, faqat zohirga qaraydiganlardan) yashirishni istashgan. Bu tizimda inson ruhining safari (Sayru suluk) ko‘pincha mashaqqatli yo‘l yoki voha izlayotgan karvon timsolida tasvirlanadi. Tasavvufda inson qalbi oynaga o‘xshatiladi. Bu oynaning vazifasi – Ilohiy nurni (Allohning jamolini) aks ettirishdir. Biroq bu yerda bir nechta muhim shartlar bor. Avvalo, qalbni poklash kerak. Chunki oyna zanglagan yoki chang bo‘lsa (ya‘ni inson gunohlarga, dunyoviy hirslarga botgan bo‘lsa), unda haqiqat aks etmaydi. Sufiyning asosiy maqsadi – o‘z qalb oynasini riyozat va zikr bilan “musaffo” qilishdir.

Tasavvufdagi ramzlar bir-birini to'ldiruvchi tizimni hosil qiladi. Chunki timsollar mantiqqa emas, qalbgga murojaat qiladi. M., "Men Allohni juda sog'indim" degan gapdan ko'ra, "Men Vatanidan ayrilgan nay kabi ingrayapman" deyish inson ruhiyatiga kuchliroq ta'sir qiladi.

Fariduddin Attorning «Mantiqut-tayr» (Qushlar nutqi) dostonidagi timsollar olamiga kirsak, bu asar – inson ruhining kamolot sari bosgan yo'lini qushlar sayohati orqali ko'rsatib bergan buyuk xarita ekanligini anglaymiz. Dostondagi har bir qush – insonning ma'lum bir nuqsoni yoki fe'l-atvorini anglatuvchi timsoldir. Ularning maqsadi – afsonaviy Simurg' (Haqiqat - Alloh) podshohni topish.

Asosiy qushlar va ularning ma'nolari:

a) hudhud (Sassiqqopishak) - yo'l boshlovchi, Pir (ustoz) timsoli. U boshqa qushlarni g'ofillikdan uyg'otib, to'g'ri yo'lga boshlaydi;

b) bulbul - dunyoviy, o'tkinchi go'zallikka (Gulga) oshiq inson timsoli. U "Menga shu gulning ishqiy yetadi, boshqa olam kerak emas", deb yo'ldan qolmoqchi bo'ladi;

c) to'ti - umrboqiylik (obi hayot) izlagan, lekin faqat tashqi ko'rinishga va chiroyli so'zlarga berilgan inson;

d) tovus - jannatni sog'ingan, lekin Yaratganning o'zini emas, balki faqat u beradigan rohat-farog'atni (mukofotni) istovchi kishi;

e) o'rdak - poklik da'vo qiladigan, lekin suvdan (moddiy dunyo lazatlaridan) chiqqisi kelmaydigan, "ibodatim shu suv ichida" deyidigan zohid.

Qushlar Simurg'ga yetish uchun yettita mashaqqatli vodiyan o'tishlari kerak edi. Bu inson qalbining yuksalish yo'lidir:

- 1) Talab vodiysi (izlanish);
- 2) Ishq vodiysi (muhabbat);
- 3) Ma'rifat vodiysi (haqiqatni anglash);
- 4) Istig'no vodiysi (ehtiyosizlik, dunyodan uzilish);
- 5) Tavhid vodiysi (birlik – hamma narsa Xudodan ekanini bilish);
- 6) Hayrat vodiysi (lollik, hayratda qolish);
- 7) Faqru fano vodiysi (o'zini yo'qotish va Ilohga qavushish).

Dostonning eng go'zal ramzi "Simurg'" siri hisoblanadi. Yo'lga chiqqan minglab qushlardan faqat 30 tasi (Si murg') oxirgi manzilga yetib keladi. Ular podshoh Simurg'ning saroyiga kirganlarida va ko'zguna boqqanlarida, unda faqat o'zlarini ko'radilar.

Ma'nosi - Simurg' (30 qush) aslida ularning o'zlari edi. Ya'ni, inson o'zligini anglasa, o'z qalbini poklasa, Haqiqatni o'z ichidan topadi.

Ko'rib turganimizdek, birgina qush obrazi orqali Attor butun boshli psixologiya va falsafani tushuntirib bergan.

Bugungi kun odami ko'pincha shu ikki holat o'rtasida muvozanat izlaydi.

“O‘rdak” fe‘lli insonlar moddiylik bandilaridir. O‘rdak – suvsiz yashay olmaydigan qush. Tasavvufda suv – moddiy dunyo, boylik va qulaylik ramzi.

Bugungi ko‘rinishi - faqat karɣera, uy-joy, mashina va jismoniy rohatlar ketidan quvib, ruhiyatni unutgan kishilar. Ular “Mening hamma narsam yetarli, ibodatim ham shu ishim”, deb o‘zlarini ovutadilar, lekin ruhiy yuksalish (parvoz) haqida o‘ylamaydilar. Ularning muammosi O‘rdak suvda yaxshi suzadi, lekin Simurg‘ tomon – yuksak tog‘larga ucha olmasligi, qanotlari og‘irlashib qolganligini tushunmaslikdadir.

“Tovus” fe‘lli insonlar shaklbozlardir. Tovus o‘zining go‘zal patlari bilan faxrlanadi va doim Jannatni sog‘inadi, chunki u vaqtida u yerdan quvilgan. Bugungi ko‘rinishi - diniy yoki ma‘naviy amallarni faqat mukofot (Jannat) uchun yoki xo‘jako‘rsinga qiladiganlardir. Ular uchun ichki mohiyatdan ko‘ra, tashqi “patlar” – chiroyli kiyinish, jamiyatdagi obro‘ va dindor bo‘lib ko‘rinish muhimroq. Ularning muammosi - Allohning o‘zini emas, U beradigan ne‘matlardan umidvor bo‘lishidadir. Bu esa chin ishq emas, balki “savdogarlik”dir. Ikkalasi ham insonning o‘zi va jamiyat uchun xavfli. Bu qushlarning har ikkisi ham “Men” (Nafs) tuzog‘iga tushgan. O‘rdak o‘z rohatiga (nafsiga) asir. Tovus o‘z chiroyi va kelajakdagi rohatiga (kibriga) asir.

Xulosalar. Shuning uchun bugungi davrda pragmatik nigoh juda zarur. Chunki biz aytgan pragmatika nuqtai nazaridan, ramzlardagi mubolag‘a ham, lof ham “Graysning sifat kategoriyasi” (yolg‘on gapirmaslik qoidasi)ni ataylab buzishdir. Lekin nega biz buni yomon ko‘rmaymiz? Chunki kommunikativ effekt zaruriyati tufayli biz uni to‘g‘ri qabul qilamiz. Agar men “Juda ko‘p kutdim” desam, bu oddiy axborot. Agar “Kutaverib sochim oqardi yoki ko‘zim qoraydi” desam (mubolag‘a), bu mening ichki holatimni aniqroq yetkazadi va ta‘siri kuchliroq bo‘ladi. Shuningdek, estetik zavq olamiz. Xullas, bugungi kunda har qanday matnni pragmatik tahlil qilish tilshunoslik uchun juda katta material beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. Тошкент, 1991 йил, 255-бет.
2. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Иккинчи китоб. Тошкент, “Mumtoz so‘z”, 2010, 184-бет.
3. Нурмонов А. Структор тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари (“Лингвистика” йўналишидаги магистрлар учун ўқув қўлланма). – Андижон, 2006, 34-35-бет.
4. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. - Тошкент: Маънавият, 2004. – 160 б.
5. Usmonova Sh., SHamsiyeva SH. Psiholingvistika. Darslik. – Toshkent: Boomany print, 2022. - 186 b.
6. Эшмўминов А. Ўзбек миллий корпусининг синонимик базаси. Қарши. 2019.
7. Rahimov U. Ozbek tilida pragmatika va presuppozitsiya hamda matnning konseptologik tadqiqi. Andijon, 2026 yil, 41-bet.
8. Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. Тошкент. - 2005.
9. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. Тошкент, 1993 йил, 5-бет.
10. Иброҳим Ҳаққулов. Тасаввуф ва шеърият. Тошкент. 1991 йил.10-бет.
11. Иброҳим Ҳаққулов. Шеърият – рухий муносабат. Тошкент, 1989 йил.

12. Иброҳим Ҳаққулов. Тасаввуф ва шеърят. Тошкент. 1991 йил.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-том. Москва, 1980 йил, 624-бет.
14. Навоий асарлари луғати. Тошкент, 1972 йил, 526 бет.
15. Иванов С. Алишер Навоийнинг “Лисон ут-тайр” достони.(Рус тилидан Абдулла Шер таржимаси). “Жаҳон адабиёти журнали”, 2015 йил, 8-сон.
16. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Жиззах. 2010.

